

A decorative graphic consisting of several overlapping, semi-transparent blue triangles of varying shades, creating a dynamic, abstract shape on the left side of the page.

**PARONIM, FRAZEOLOGIK,  
TASVIRIY IFODALARNING  
QISQACHA LUG'ATI**

## PARONIMLAR LUG'ATI

### A

#### **ABAD — OBOD**

Abad — doimiy, mangu.

Obod — obodon, farovon, sergavjum.

#### **ABADIY — ADABIY**

Abadiy — mangu.

Adabiy — badiiy adabiyotga oid.

#### **ABZAL — AFZAL**

Abzal — yugan, egar, jabduq kabi ot asboblari majmui.

Afzal — nisbatan yaxshi, durust, ma'qul.

#### **ABLAQ — ABLAH**

Ablaq — ola-bula tusli ot.

Ablah — o'ta yaramas, razil, qabih.

#### **ABRO' — OBRO'**

Abro' — eski t. qosh.

Obro' — hurmat, e'tibor, nufuz. Obro' qozonmoq.

#### **ABGOR — AFKOR**

Abgor — nochor, xarob.

Afkor — fikrlar.

#### **ADASH — ODOSH**

Adash — otlari (nomlari) aynan bir xil bo'lgan kishilar — otdosh.

Odosh — dial. tamom bo'lish; tugash; tamom. Odosh bo'ldi.

#### **ADIB — ADIP**

Adib — badiiy asar yozadigan shaxs, yozuvchi.

Adip — to'n, xalat kabilarning chetiga tikiladigan ensiz mato — mag'iz.

#### **ADIL — ADL**

Adil — tik, to'g'ri.

Adl — adolatli, odil.

#### **ADRESAT — ADRESANT**

Adresat — xat oluvchi.

Adresant — xat yuboruvchi.

#### **AZIM — AZM**

Azim — g'oyat katta, ulkan.

Azm — qat'iy qaror, jazm. Azm qilmoq.

#### **AZOT - OZOD**

Azot — birdan, birdaniga, dast.

Ozod — tobe bo'lmagan, erkin.

#### **AYRILIK — AYRILIQ**

Ayrilik — ayri bo'ladigan, ayribop. Ayrilik yog'och.

Ayriliq — judolik, firoq, hijron.

#### **AYON — A'YON**

Ayon — ma'lum, ravshan.

A'yon — amaldor.

#### **ALIF — OLIF**

Alif — arab alfavitidagi birinchi harfning nomi.

Olif - odatda lak, moy, bo'yoq kabilarni tayyorlashda qo'llanadigan tayyor moy, olif moy.

#### **ALAM — A'LAM**

Alam — Ma'naviy ezilish, azob chekish, og'riq.

A'lam — din. Shariat qonun-qoidalari yuzasidan berilgan fatvoni tasdiq yoki rad etuvchi diniy arbob, bosh mufti.

#### **ALAMON — AL'AMON**

Alamon — olomon.

Al'amon — omonlik uchun murojaat.

#### **ALIMENT — ELEMENT**

Aliment — o'zidan ajralgan xotiniga (sag'ir, balog'atga yetmagan bolalari uchun) yoki mehnatga yaroqsiz oila a'zolariga, yoxud xotin tomonidan ilgari eriga qonun asosida to'lab turiladigan nafaqa.

Element — xim. Oddiy vositalar bilan bo'lib bo'lmaydigan modda.

#### **ALO — A'LO**

Alo — ustiga: Nur alo nur.

A'lo — eng yaxshi, ajoyib.

#### **ALPOZ — ALFOZ**

Alpoz — vaziyat, ahvol, holat.

Alfoz — esk. so'zlashuvdagi ibora.

#### **AMIR — AMR**

Amir — Sharqning ayrim musulmon mamlakatlarida xonlik yoki podsholik unvoni va shu unvon egasi.

Amr — buyruq, farmon, farmoyish.

#### **ANONIM — OMONIM**

Anonim — nomsiz, imzo qo'yilmagan. Anonim xat.

Omonim — shakl jihatdan bir va mazmun jihatdan turlicha bo'lgan so'z.

#### **ANGAR — ANGOR**

Angar — dial.: ekin maydoni, ekinzor, dala.

Angor — aft-angor, bashara, qiyofa.

#### **ANQO — ANQOV**

Anqo — afsonaviy qush.

Anqov — ovsar.

#### **ARIQ — ORIQ**

Ariq — maxsus suv yo'li.

Oriq — ozib ketgan, ozg'in, eti qochgan.

#### **ARKON — ARQON**

Arkon — esk. ustun, tayanch, suyanchiq; atoqli arbob; arkoni davlat — davlat arboblari.

Arqon — odatda kanop o'simligidan yoki turli ip, junlardan pishitilib, eshiladigan yo'g'on chilvir.

#### **ARPA — ARFA**

Arpa — bug'doysimon g'alla o'simligi va uning hosili.

Arfa — uch burchak shaklidagi nohin bilan chalinadigan musiqa asbobi.

#### **ARTIKL — ARTIKUL**

Artikl — ba'zi tillarda ot oldidan qo'llanadigan grammatik ko'rsatkich.

Artikul — mahsulot yoki tovarning xili, turi, tipi.

#### **ARTISH — ARCHISH**

Artish — tozalash.

Archish — po'slog'ini olmoq.

#### **ASIL — ASL**

Asil — haqiqiy, tabiiy.

Asl — biror narsaning asosi, asos. Asl nusxa.

#### **ASIR — ASR**

Asir — asirlikka tushgan odam, tutqun.

Asr — yuz yillik.

#### **ATO — OTA**

Ato — in'om, sovg'a.

Ota — farzandli er kishi.

#### **ATOQLI — OTOQLI**

Atoqli — atoqli ot — gram. biror predmetga maxsus quyilgan nom.

Otoqli — dong taratgan, ko'zg'a ko'ringan, mashhur.  
Otoqli olim.

**AXIR — AXIYRI**

Axir — gram. Ta'kid yuklamasi.

Axiyri — dial. oxiri, pirovardida.

**AHIL — AHL**

Ahil — totuv, inoq, ittifoq.

Ahl — biror soha, kasb yoki ma'lum doiradagi kishilar.

**ACHIPTI — ACHIBDI**

Achipti — oshiq o'yini turi.

Achibdi — (qatiq) achipti.

**B**

**BAD — BA'D**

Bad — yomon, yaramas.

Ba'd — keyin, so'ng.

**BADNAFAS — BADNAFS**

Badnafas — nafasi sovuq.

Badnafs — nafsi buzuq.

**BAKOR — BEKOR**

Bakor — koriga yaramoq.

Bekor — ishsiz.

**BAZUR — BAZO'R**

Bazur — bahuzur, bemalol.

Bazo'r — zo'rg'a, arang, zo'r bilan.

**BAYON — BOYON**

Bayon — biror voqea yoki hodisani ifodalab berish.

Bayon yozish. Bayon qilmoq.

Boyon — boylar.

**BAK — BARG**

Bak — suv, umuman, suyuqlik solinadigan idish.

Barg — o'simliklar yaprog'i.

**BAL — BALL**

Bal — katta bazm, raqs kechasi.

Ball — biror hodisa, yer qimirlash, shamol kabilarning, shuningdek, o'quvchilarning bilim darajasini va xulqi raqam bilan ko'rsatadigan baho.

**BANDA — BANDI**

Banda — din. qul, odam.

Bandi — asirlikka tushgan, tutqun. Bandi qilib olmoq.

Bandi bo'lmoq.

**BANK — BANKA**

Bank — davlat pul mablag'larini to'playdigan va taqsimlaydigan muassasa.

Banka — metall yoki shishadan yasaltan silindrik idish.

Shisha banka. Tunuka banka.

**BANT — BAND**

Bant — sochga taqiladigan lenta.

Band — biror ish bilan mashg'ul, modda, paragraf.

**BARDA — BARDI**

Barda — pivo, aroq pishirganda chiqadigan quyqa, to'pon. Barda mollar uchun to'yimli ozuqadir.

Bardi — uzun bargining ikki cheti arrasimon bo'lib o'sadigan ko'p yillik yovvoyi o'simlik, qiyoq o't.

**BARMOQ — BORMOQ**

Barmoq — a'zo.

Bormoq — borish.

**BETON — BIDON**

Beton — sement, suv, shag'al qorishmasi va shu qorishmadan quyiladigan fundament, devor va shu kabilar.

Bidon — sut, suv va boshqa suyuqliklar saqlanadigan qopqoqli tuynukli idish.

**BIKIR — BIKR**

Bikir — pishiq, baquvvat.

Bikr — iffatli, bokira.

**BOB — BOP**

Bob — asarning bir qismi, bo'lagi, bo'limi.

Bop — mos, munosib.

**BOD — BOT**

Bod — med. revmatizm.

Bot — tez, tez-tez; ko'p vaqt o'tmay.

**BORLIK — BORLIQ**

Borlik — bor bo'lish, mavjudlik. Otabek shu odamning yurak dardi borligini birinchi bilardi

Borliq — olam, dunyo.

**BOSHIDA — BOSHDA**

Boshida — oldida.

Boshda — avval, daslab.

**BOG'LIQ — BOG'LI**

Bog'liq — bog'langan.

Bog'li — bog'i bor.

**BURJ — BURCH**

Burj — esk. Yulduzlar turkumi, to'dasi. O'n ikka burj.

Burch — vazifa, iftixor.

**BURUL — BURIL**

Burul — xotdor, ko'kish.

Buril — burilmoq.

**BUROV — BIROV**

Burov — burish.

Birov — kimdir.

**BUT — BUD**

But — to'liq bekami ko'st.

Bud — bor-yo'q narsa.

**BURISH — BURUSH**

Burish — burmoq fe'ldan, harakatni bildiradigan ish oti.

Burush — yuzdagi ajin, tirish.

**BURG'U — BURGI**

Burg'u — qadimgi cholg'u asbobi.

Burgi — parma.

**BUYUK — BUYUQ**

Buyuk — ulkan, katta.

Buyuq — esk. qattiq sovuq, izg'irin.

**BUQ'A — BUQA**

Buq'a — madrasadagi.

Buqa — yosh erkak qoramol.

**BO'YICHA — BO'YINCHA**

Bo'yicha — ko'ra, binoan.

Bo'yincha — arava qo'shilganda otning bo'yniga osiladigan asbob.

**D**

**DADIL — DALIL**

Dadil — dovyurak.

Dalil — isbot.

**DAVO — DA'VO**

Davo — shifo.

Da'vo — da'vogar yoki javobgar tomonidan qilinadigan qat'iy talab; tuhmat. Da'vo qilmoq.

**DAVR — DAVUR**

Davr — muddat, vaqt, zamon.

Davur — s. t. qadar, -gacha. Men bu yigit bilan maktabga davur birga bordim.

**DAKKI — DAQQI**

Dakki — tanbeh, hayfsan. Dakki bermoq. Dakki yemoq.

Daqqi — tinkasi qurigan, holdan toygan. Daqqi ot. Daqqi odam.

**DALA — DALLA**

Dala — keng ekin maydoni, sayhon yer; qir.

Dalla — axloqi buzuvchi, qo'shmachi (ayol haqida).

**DARD — DART**

Dard — qiynalish, azob chekish, azob.

Dart — qarq'ishni ifodalaydigan so'z.

**DARZ — DARS**

Darz — devor, taxta kabilardagi yoriq. Darz ketmoq, yorilmoq.

Dars — o'quv ishining tashkiliy formasini. Adabiyot darsi.

**DAFINA — DAFNA**

Dafina — Yerga ko'milgan boylik, xazina.

Dafna — doimiy yashil libosdagi xushbo'y daraxt (lavr.) Dafna daraxti. Dafna bargi.

**DAHA — DAHO**

Daha — shaharning ma'muriy rayoni yoki qismi. Ilgari Toshkent to'rt dahaga bo'linar edi.

Daho — dohiy, dohiylik.

**DEVON — DIVAN**

Devon — biror shoirning she'rlaridan tuzilgan to'plam.

Divan — mebelning bir turi.

**DEMAK — DEMOQ**

Demak — bas, binobarin.

Demoq — aytmoq, gapirmoq. Oz yemoq tani sog'liq, Oz demoq hikmatga bog'liq.

**DIPLOMAT — DIPLOMANT**

Diplomat — davlatlar bilan aloqa qilib turuvchi hukumat vakili.

Diplomant — oliy o'quv yurtlarida diplom olish uchun berilgan topshiriqlarni bajarayotgan student.

**DUST — DO'ST**

Dust — zararli hasharotlarga qarshi ishlatiladigan maxsus zaharli dori, poroshok.

Do'st — og'ayni, sirdosh, oshna, o'rtoq.

**DUP — DUB**

Dub — daraxt.

Dub — tovushga taqlid so'z.

**E**

**EGALLAMOQ — EGARLAMOQ**

Egallamoq — o'ziga qaratmoq, ega bo'lmoq.

Egarlamoq — ot, eshaklarga egar-jabduq tortmoq.

**ELLIK — ENLI**

Ellik — son, kirq to'qqiz bilan ellik bir oralig'idagi raqam.

Enli — eni keng. Enli taxta.

**EHZON — EHSON**

Ehzon — qayg'u hukm surgan kulba.

Ehson — hayli ish, ezigulik.

**EMAKDOSH — EMIKDOSH**

Emakdosh — birga ishlaydigan, hamkasb. Adabiyot emakdosh.

Emikdosh — sut emishgan opa singil, aka-uka.

**ESIZ — ESSIZ**

Esiz — afsus, attang.

Essiz — esi yo'q, nodon.

**ERTAGI — ERTANGI**

Ertagi — erta pishadigan. Ertagi qovun.

Ertangi — ertaga bo'ladigan.

**F**

**FABRIKANT — FABRIKAT**

Fabrikant — fabrika xo'jayini, egasi.

Fabrikat — yarim fabrikat, batamom tayyorlanmagan mahsulot, xom mahsulot.

**FASAD — FASOD**

Fasad — binoning old tomoni.

Fasod — yiring, modda. Fasod bog'lagan yara.

**FAQIR — PAQIR**

Faqir — kambag'al.

Paqir — chelak.

**FERMA — FIRMA**

Ferma — kolxoz va sovxozlarda chorvachilikning biror tarmog'i bilan shug'ullanuvchi alohida ixtisoslashtirilgan xo'jalik.

Firma — biror savdo yoki sanoat birlashmasi.

**G**

**GAZ — G'OZ**

Gaz — uchuvchan yoki tarqaluvchan fizik modda.

G'oz — parrandaning nomi.

**GAL — GALL**

Gal — safar, marta.

Gall — xalq nomi. Gallar yana Rimni dog'da qoldirdi.

**GANJ — GANCH**

Ganj — xazina, boylik.

Ganch — suvoq uchun ishlatiladigan unsimon qurilish materiallari.

**GILOS — GO'LOS**

Gilos — mevasi olchaga o'xshash daraxt.

Go'los — s. t. rang turlaridan biri.

**GO'SH — GO'SHT**

Go'sh — esk.t. eshitish organi, quloq.

Go'sht — hayvon yoki parrandalarning taom sifatida ishlatiladigan eti.

**H**

**HALAK — HALOK**

Halak — nihoyatda charchagan, qiynalgan, azoblangan.

Halok: halok bo'lmoq — o'lmoq, nobud bo'lmoq.

**HARAM — HAROM**

Haram — aysh-ishrat xonasi.

Harom — nopok, pok tutilmagan, toza emas. Harom ovqat.

**HARIF — HARF**

Harif — dushman, raqib.

Harf — tovushlarning yozuvdagi shakli.

**I**

**IJOBIY — IJODIY**

Ijoby — yaxshi, durust, ma'qul.

Ijodiy — ijodga oid. Ijodiy ish baholandi.

**ILIK — ILK**

Ilik — ichida yog'i bo'lgan suyak. Ilikni qoqib yemoq.

Ilk — dastlabki, boshlang'ich. Ilk ijod. Ilk bahor.

**INDAMOQ — UNDAMOQ**

Indamoq — ovoz chiqarmaslik, gap ochmaslik.

Undamoq — biror narsaga da'vat etmoq.

## J

### **JAZLIK — JAZLIQ**

Jazlik — bir ovqatga loyiq jaz.

Jazliq — odatda to'qim tagiga solinadigan namat-taglik (ot asbobi).

### **JAYRON — JIYRON**

Jayron — kiyikning bir turi.

Jiyron — qizg'ish tusli ot.

### **JODI — JODU**

Jodi — beda, makkajo'xori kabilarning poyasini maydalaydigan qo'l asbobi.

Jodu — sehrli, afsunkor, fusunkor, maftun qiladigan.

### **JO — JOY**

Jo — dilga jo qilmoq, ko'ngilga joylashtirmoq

Joy — biror narsa joylashadigan makon, o'rin.

### **JUDA — JUDO**

Juda — nihoyatda, eng.

Judo — biror narsa yoki kimsasidan ayrilmoq ayirmoq, judo bo'lmoq. Judo qilmoq.

## K

### **KAFT — KIFT**

Kaft — qo'lning qismi.

Kift — yelka.

### **KAZAK — QOZOQ**

Kazak — Tar. Moskva rusida va qadimgi Ukrainada chekka o'lkalarga ko'chib borib o'rnatilgan dehqonlarning harbiylashgan jamoalari, a'zolari va ular avlodidan bo'lgan kishilar.

Qozoq — Qozog'istonning asosiy aholisini tashkil etuvchi mahalliy xalq.

### **KAMYOB — KAMOB**

Kamyob — kam topiladigan, kam uchraydigan.

Kamob — suvi kam, tanqis.

### **KAMPANIYA — KOMPANIYA**

Kampaniya — xo'jalik yoki ijtimoiy-siyosiy jihatdan muhim masalani amalga oshirish maqsadida ma'lum muddat ichida o'tkaziladigan ish.

Kompaniya — sheriklar, shirkat.

### **KARTA — QARTA**

Karta — geogr. xarita.

Qarta — ovqatga ishlatish maqsadida, otning yo'g'ok ichagidan maxsus tayyorlanadigan qazining bir turi.

### **KARTOCHKA — KARTOSHKA**

Kartochka — katta-kichik varaqa shaklidagi qog'oz.

Kartochkaga yozmoq.

Kartoshka — hosili yer ostida bo'ladigan sabzavot o'simlik va uning mahsuli.

### **KASB — KASHF**

Kasb — hunar, ixtisos.

Kashf — ixtiro qilmoq, kashf ztmoq, yaratmoq, ijod etmoq.

### **KAFFE — KOFFE**

Kaffe — kofe ichiladigan joy, qahvaxona. Kafeda o'tirmoq. Kafega kirmoq.

Kofe — qahva. Kofe ichmoq.

### **KAFEL — KAFIL**

Kafel — koshin chinniga o'xshash rangli, naqshli, yiltiroq g'isht plitka (binolarning devoriga ishlatiladi).

Kafil — garov.

## **KAT — KART**

Kat — yog'och karavat.

Kart — kart dumba.

## **KONTAK — KONTRAK**

Kontak — aloqa, bog'lanish.

Kontrak — shartnoma.

## **KAVSH — KOVSH**

Kavsh: kavsh qaytarmoq — ovqatni yaxshi hazm qilish uchun chaynalmoq (hayvonlar haqida).

Kovsh — ekskavator cho'michi.

## **KVADRAT — KVADRANT**

Kvadrat — teng tomonli to'g'ri to'rtburchak.

Kvadrant — doiraning chorak qismi.

## **KECHINMA — KECHIRMA**

Kechinma — kishilarning ichki holati.

Kechirma — boshdan kechgan hodisalar.

## **KOMPLEKT — KONFLIKT**

Komplekt — bir butunni tashkil etadigan narsalarning to'liq to'plami, yig'indisi.

Konflikt — janjal, nizo, to'qnashish, to'qnashuv.

Konflikt chiqarishga urinmoq.

## **KOMPAS — KOMPOST**

Kompas — ufq tomonlarni ko'rsatish uchun xizmat qiladigan asbob.

Kompost — o't, po'choq; organik chiqindilar bilan tuproq, torf aralashmasidan hosil bo'ladigan organik o'g'it.

## **KOKS — KOKOS**

Koks — havosiz qizdirish yo'li bilan ko'mir, torf, neft qoldiqlaridan olinadigan yoqilg'i.

Kokos — yong'oqli meva.

## **KUYINDI — KUYUNDI**

Kuyindi — kuyishdan qolgan iz.

Kuyundi — kuyunmoq.

## L

## **LAHM — LAHIM**

Lahm — suyaksiz go'sht.

Lahim — yer osti yo'li.

## **LOP — LOF**

Lop — birdan.

Lof — mubolag'a.

## M

## **MAHAL — MAHOL**

Mahal — vaqt, dam, payt.

Mahol — amalga oshirish qiyin, mushkul.

## **MATAL — MA'TAL**

Matal — hikmatli so'z.

Ma'tal — kutib qolgan, muntazir.

## **MILK — MULK**

Milk — tishni tutib turadigan qism, tish o'rni.

Mulk — boylik, yer-suv, ko'p miqdordagi mablag'.

## **MURABBA — MURABBO**

Murabba — to'rt tomoni baravar burchak, kvadrat (she'riyatda to'rtlik).

Murabbo — qiyom.

## **MURVAT — MURUVVAT**

Murvat — burab ochiladigan narsa; vint.

Muruvvat — mardlik yuzasidan qilinadigan sahovat, yaxshilik, shafqat.

## N

**NAV — NOV**

Nav — biror narsa xili, turi.

Nov — yomg'ir, suvlarni oqizish uchun yog'och yoki tunukadan maxsus qilingan tarnov.

**NAR — NOR**

Nar — sher, mushuk yoki qushlarning erkagi.

Nor — bir o'rkachli tuya.

**NASHA — NASH'A**

Nasha — chekish tufayli kishiga zararli kayf beradigan modda va shu modda olinadigan o'simlik.

Nash'a — zavq, kayf, safo.

**NAQ — NAQD**

Naq — xuddi, ayni

Naqd — puli darhol to'lanadigan.

**NUFUZ — NUFUS**

Nufuz — obro', e'tibor.

Nufus — aholi.

**O****ORDEN — ORDER**

Orden — katta xizmatlari uchun kishilar yoki tashkilotlarga beriladigan oliy mukofot.

Order — ma'lum narsani olish, qo'lga kiritish imkonini beradigan hujjat.

**ORASIDA — ORASTA**

Orasida — o'rtasida, ichida.

Orasta — yasatilgan, bezatilgan.

**OTALIK — OTALIQ**

Otalik — ota so'zidan belgi oti. Otalik hissining bebaho.

Otaliq — biror korxonada yoki muassasaning boshqa bir tashkilotni biror yordam ko'rsatish maqsadida o'z rahbarligiga olishi.

**OQIM — OQIN**

Oqim — biror narsaning harakat jarayoni.

Oqin — xalq shoiri, baxshi.

**OQLIK — OQLIQ**

Oqlik — oq so'zidan belgi oti. Qorning oqligi ko'zni qamashtiradi.

Oqliq — sut-qatiq mahsulotlari.

**OG'U — OG'UV**

Og'u — zahar.

Og'uv — og'moq.

**P****PAY — POY**

Pay — muskul.

Poy — juft narsalarning (ko'pincha oyoq kiyimlarining) biri. Bir poy etik.

**PAYDO — FOYDA**

Paydo: paydo bo'lmoq — yuzaga chiqmoq, yuzaga kelmoq, hosil bo'lmoq.

Foyda — naf, manfaat.

**PAKT — FAKT**

Pakt — siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro shartnoma, bitim.

Fakt — dalil, asos.

**PALAK — FALAK**

Palak — gul solingan choyshab, so'zana.

Falak — osmon gumbazi, osmon, ko'k.

**PAN — FAN**

Pan — Polshada, revolyutsiyadan oldingi Ukraina va Belorussiyada — pomeschik, boy.

Fan — ilmlar majmui.

**PANTON — FONTAN**

Panton: Panton ko'prik — suvustiga vaqtincha qurilgan ko'prik.

Fontan — truba yoki teshiklardan yuqoriga qarab otilib turgan suv, favvora.

**PANEL — FANER**

Panel — binokorlikda keng qo'llaniladigan temir-beton plita.

Faner — juda yupqa taxtalardan qat-qat qilib tayirlangan; binokorlik, mebel sanoatida ishlatiladigan material.

**PAPIROS — PAPIRUS**

Papiros — chekish uchun tamaki tiqilgan qog'oz naycha.

Papiirus — tropik mamlakatlarda o'sadigan qamishsimon o'simlik, qadimgi Misr va boshqa xalqlar tomonidan tayyorlangan qog'oz.

**PAR — FAR**

Par — issiqlik natijasida ko'tariladigan bug'.

Far — transport mashinalari, traktor kabilardagi reflektorli fonar.

**PAROVOZ — PAROVUZ**

Parovoz — bug' dvigatelli lokomotiv.

Parovuz — dial. to'n, ko'rpa kabilarning chetiga tikiladigan mag'iz.

**PASTA — PASTDA**

Pasta — meditsina, kosmetika kabilarda qo'llanadigan xamirsimon dorilarning nomi. Tish pastasi.

Pastda — pastlikda, quyida.

**PAQIR — FAQIR**

Paqir — chelak, satil.

Faqir — kambag'al bechora.

**PENAL — FINAL**

Penal — qalam, ruchka kabilarda solinadigan maxsus quticha, qalamdon.

Final: final o'yin — biror narsaning (sportning biror turi, shuningdek, asar yoki konsertning) oxirgi qismi.

**POL — FOL**

Pol — xona yoki ayvonga tekis qilib qoqilgan taxta.

Fol — odatda kishining o'tmishi yoki kelajagini oldindan «aytib berish», soxta bashorat.

**POYEZD — FOIZ**

Poyezd — lokomotiv yordamida harakatga keladigan, bir-biriga ulangan vagonlardan iborat sostav.

Foiz — yaxlit birlik deb qabul qilingan son (miqdor) ning yuzdan bir ulushi, protsent.

**POST — PO'ST**

Post — mas'uliyatli lavozim, o'rin. Direktorlik posti.

Po'st — biror narsaning sirtqi qobig'i, po'stlog'i.

Tolning po'sti. Terakning po'stini shilmoq.

**POCHA — POCHCHA**

Pocha — shim, lozim kabilarning tizzadan pastki qismi.

Pochcha — opaning eri.

**Q****QAD — QAT**

Qat — qomat.

Qad — qavat, qatlam.

**QALA — QAL'A**

Qala — o'tinni taxla.

Qal'a — shahar.

**QALMOQ — QOLMOQ**

Qalmoq — millat.

Qolmoq — qolish.

**QARZ — QARS**

Qarz — qaytariladigan narsa.

Qars — taqlid so'z: qars etmoq.

**QAVIQ — QOVUQ**

Qaviq — qavilgan, qavib tikilgan. Qaviq ko'rpa.

Qovuq — anat. inson yoki hayvon organizmi.

**QADOQ — QADAH**

Qadoq — qabargan, qabarib ketgan.

Qadah — ichimlik ichiladigan idish, ryumka, fujer.

**QAZI — QOZI**

Qazi — ot go'shtidan maxsus tayyorlanadigan milliy ovqat.

Qozi — shariat hukmi bilan ish ko'ruvchi mansabdor shaxs.

**QAYD — QAYT**

Qayd — belgilab olish. Qayd etmoq.

Qayt: qayt qilmoq — yeganini qaytarmoq, qusmoq.

**QAROL — QIROL**

Qarol — birovning xizmatini qilib yuruvchi kishi, malay.

QiroL — ba'zi feodal va burjua davlatlaridagi monarxlik unvoni va shu unvonga ega shaxs.

**QA'RI — QARI**

Qa'ri — chuqur yer, osti, ichi, tubi.

Qari — yoshi ulug', keksa.

**QAT'I — QAT'IY**

Qat'i — qa'ti nazar.

Qat'iy — uzil-kesil.

**QIYIQ — QIYQ**

Qiyiq — qiyalagan; ro'molcha.

Qiyq — taqlid so'z: qiyq etmoq.

**QIYMAT — QIMMAT**

Qiyamat — tovarda gavalangan va unda mujassamlangan ijtimoiy mehnat va baho.

Qimmat — ko'p pulga baholanadigan. Bu kitob menga qimmatga tushdi.

**QISM — QISIM**

Qism — bo'lak.

Qisim — siqim.

**QOLIB — QOLIP**

Qolib — qolmoqning ravishdosh shakli.

Qolip — oyoq kiyimi moslamasi.

**QUR'A — QURA**

Qur'a — chek.

Qura — qura boshlamoq.

**QUYILDI — QUYULDI**

Quyildi — oqdi.

Quyuldi — quyuqlashdi.

**QULP — QULF**

Qulp — qulp urmoq, yashnamoq, barq urib ochilmoq.

Qulf — kalit yordamida qulflanadigan asbob. Uyg'a qulf solib berkitmoq.

**QURT — QURUT**

Qurt — qumursqalarning umumiy nomi. Qurt tushgan olma.

Qurut — suzmaga ko'pincha tuz qo'shib, dumaloq qilib quritilgan yemish.

**QURUQ — QO'RIQ**

Quruq — nam tegmagan, ho'l bo'lmagan. Quruq yog'och. Quruq o'tin.

Qo'riq — ochilmagan, ishlanmagan (yer haqida).

**R****RAVON — ROVON**

Ravon — to'g'ri, tekis, silliq. Ravon yo'l.

Rovon — dial. ayvon.

**RAZM — RAMZ**

Razm — ko'z tashlash, qarash, nigoh.

Ramz — simvol, belgi.

**RASO — ROSA**

Raso: aqli raso — dono. Aqli raso yigit.

Rosa — juda, nihoyatda.

**REAL — RIAL**

Real — haqiqiy, haqqoniy.

Rial — Eronda pul birligi.

**ROL — RUL**

Rol — kino yoki sahnada yaratiladigan dramatik obraz va uning nutqi. Sahnada rolni ijro etmoq.

Rul — ba'zi transport vositalarida boshqarish mexanizmi.

**S****SAYD — SAYID**

Sayd — ov.

Sayid — Muhammad Payg'ambarimiz avlodlari.

**SADA — SADO**

Sada — sersoya katta daraxt.

Sado — ovoz.

**SANAT — SAN'AT**

Sanat — sanatmoq.

San'at — badiiy ijodiyot turi.

**SAVSAR — SAFSAR**

Savsar — terisidan mo'yna sifatida foydalaniladigan suv hayvoni va uning terisi.

Safsar — gul turi, rang.

**SAYIL — SAYR**

Sayil — ommaviy tomosha, bayram.

Sayr — tomosha qilish, aylanib yurish, kezib yurib hordiq chiqarish.

**SALLOH — SALOH**

Salloh — mol so'yadigan mutaxassis, qassob.

Saloh — esk. haqqoniylik, to'g'rilik.

**SALMOQ — SOLMOQ**

Salmoq — biror narsa yoki kimsaning salobati, og'irligi. Salmoq bilan gapirmoq.

Solmoq — biror idishga quymoq, quyib qo'ymoq.

**SAROB — SARROF**

Sarob — aslida yo'q, lekin uzoqdan ko'zga sharpa bo'lib ko'rinadigan «narsa».

Sarrof — pul maydalovchi.

**SAQOV — SOQOV**

Saqov — ot, eshaklar kasalligi.

Soqov — gung, tilsiz.

**SERVIS — SERVIZ**

Servis — xizmat

Serviz — badiiy bezakli idish-tovoqlar to'plami

### **SODA — SODDA**

Soda — karbonat kislotaning umumiy texnik nomi.

Sodda — oddiy, jo'n sofdil.

### **SEKSIYA — SESSIYA**

Seksiya — tashkilot, muassasa, jamiyat kabilarning ma'lum bo'limi.

Sessiya — kollektiv va saylanma organlarning, sud, ilmiy tashkilot va jamiyatlarning ma'lum vaqtda chaqiriladigan majlisi.

### **SEROB — SIROP**

Serob — ko'p, ko'p miqdorda.

Sirop — shirinlik solib suyultirilgan meva sharbati, shirin ichimlik. Sirop ichmoq.

### **SIYOQ — SIYOH**

Siyoh — biror qiyofada ko'rinish, kelbatli.

Siyoh — yozish uchun ishlatiladigan rang.

### **SINTAKTIK — SINTETIK**

Sintaktik — gram. sintaksisga oid.

Sintetik — sintezga asoslangan. Sintetik kauchuklar.

### **SIQIM — SIG'IM**

Siqim — hovuch.

Sig'im — hajm, miqdor. Sig'imi katta idish.

### **SOF — SOP**

Sof — toza, pok, musaffo. Sof oltin.

Sop — biror narsaning dastasi, tutqichi. Boltaning sopi.

### **SOVLIQ — SOG'LIQ**

Sovliq — urg'ochi qo'y.

Sog'liq — sihat-salomatlik. Tozalik sog'liqning garovi.

### **SOLIQ — SOLIH**

Soliq — nalog, o'lpon.

Solih — esk. e'tiqod, talablarga qattiq rioya qiluvchi, haqqoniy, odil.

### **SOHIL — SOHIR**

Sohil — daryo, ko'l, dengiz kabilar qirg'og'i, cheti.

Sohir — esk. ajoyib, antiqa, g'alati.

### **SURGIN — SURGUN**

Surgin — surmoq.

Surgun — badarg'a bo'lgan.

### **SUDXO'R — SUTXO'R**

Sudxo'r — foydaxo'r, foydatablab odam. Sudxo'r boy.

Sutxo'r — sut ichuvchi, sutni yaxshi ko'radigan.

### **SUVOQ — SHUVOQ**

Suvoq — loy, qum, ganch, sement kabilar suvash protsessi. Suvoq qilmoq. Loy suvoq.

Shuvoq — mahalliy o'simliklarning yovvoyi turi.

### **SUNMOQ — SO'NMOQ**

Sunmoq — esk.t. uzatmoq, qo'l bilan bermoq.

So'nmoq — o'chmoq, yonishdan to'xtamoq.

### **SURAT — SUR'AT**

Surat — biror narsada (masalan, fotoapparatda yoki qalamda) chizilgan nusxa, rasm.

Sur'at — temp; jadallik.

### **SUS — SUST**

Sus — ko'ngil sus ketmoq. Biror narsa yeyish yoki ichishni nihoyatda istamoq, xohlamoq.

Sust — sustkash, sekinlik bilan (imillab) ish tutadigan.

### **SUYMOQ — SO'YMOQ**

Suymoq — sevmoq joni dili bilan muhabbat qo'ymoq.

So'ymoq — pichoq bilan hayvon, parrandalarni yoki anor kabi mevalarni kesmoq, qirqmoq.

### **SUYULMOQ — SUYILMOQ**

Suyulmoq — suyuqlashmoq.

Suyilmoq — sevilmoq.

### **SO'TA — SO'TAK**

So'ta — makkajo'xori mevasining joylashadigan qismi.

So'tak — farosati yo'q, beso'naqay, aqli kalta, befahm.

## **T**

### **TA'B — TAB**

Ta'b — kishining ichki tabiati.

Tab — taft, harorat.

### **TABAQA — TAVAQA**

Tabaqa — kishilarning ijtimoiy qatlami, ijtimoiy guruh.

Tavaqa — eshikning ochilib-yopilib turadigan har bir tomoni, qanoti.

### **TAQIB — TA'QIB**

Taqib — taqib ko'ydi.

Ta'qib — yashirincha kuzatuv.

### **TALAT — TAL'AT**

Talat — talatmoq.

Tal'at — chehra, yuz.

### **TABIAT — TABIIYOT**

Tabiat — insonni o'rab turgan va inson faoliyatisiz yaralgan moddiy borliq.

Tabiiyot — tabiat haqidagi fan.

### **TAKSA — TAKSI**

Taksa — tovar, xizmat va hokazolarga oid qat'iy belgilangan baho.

Taksi — kira qiluvchi avtomobil.

### **TAMBUR — TANBUR**

Tambur — passajir vagonlarning bir-biriga ulanadigan joyidagi yopiq dahlizcha.

Tanbur — torli milliy muzika asboblardan biri. Tanbur chalmoq.

### **TANA — TA'NA**

Tana — gavda.

Ta'na — gina-qudurat.

### **TANG — TONG**

Tang — yomon ahvolga tushib qolish. Ahvoli tang.

Tong — tunning tugash, kunduzning boshlanish payti.

### **TARIF — TA'RIF**

Tarif — rasmiy suratda belgilangan yig'im, soliq, to'lov, ish haqi, kira haqi kabilar majmui. Temir yo'l tarifi.

Ta'rif — ifodalash, ifoda.

### **TASIR — TA'SIR**

Tasir — tasir-tusur.

Tas'ir — tazyiq.

### **TAASSUB — TAASSUF**

Taassub — ma'lum yo'l yoki oqimga nihoyatda e'tiqod qo'ygan, sodiq.

Taassuf — eski.t. afsuslanish, achinish. Taassuf bildirmoq.

### **TAFSIL — TAFSIR**

Tafsil — biror iarsaning to'liq, mukammal holati, mukammallik. Tafsili bilan gapirib bermoq.

Tafsir — eski.t. biror narsaga berilgan izoh, sharh, tushuntirish.



**TEKIS — TEKST**

Tekis — to'g'ri, silliq, g'adir-budur bo'lmagan.

Tekst — yozilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan biror asar parchasi.

**TERI — TIRE**

Teri — odam yoki hayvon badanining sirtqi qobig'i.

Teri kasalliklari.

Tire — gram. gorizontaal chiziq (—) shaklidagi tinish belgi.

**TIZ — CHIZ**

Tiz — tartib bilan termoq. Munchoqni ipga tizmoq.

Qalampir tizmoq.

Chiz — chiziq tortmoq. Qalam bilan chizmoq.

**TIP — TIB**

Tip — biror narsaning turi, xili, ko'rinishi.

Tib — meditsina.

**TOBLANMOQ — TOVLANMOQ**

Toblanmoq — chiniqmoq.

Tovlanmoq — har xil tusga kirmoq, turli rangda o'zgarimoq.

**TORT — TO'RT**

Tort — shirin, yegulik konditer mahsulotlaridan birining nomi.

To'rt — «3» bilan «5» oralig'idagi raqam.

**TUB — TUP**

Tub — tag, asos, biror joyning eng pastki qismi.

Masalaning tub mohiyati.

Tup — bir dona o'simlik yoki daraxt ko'chati. Bir tup o'rik.

**TUZUM — TO'ZIM**

Tuzum — sistema, tuzilish. Kapitalistik tuzum.

To'zim — sabr, toqat, chidam. To'zimsiz bitar,

To'zimli o'zar.

**TON — TO'N**

Ton — ma'lum ohang, tovush.

To'n — qalin ustki kiyim.

**TUTUN — TUTIN**

Tutun — olovning tutuni.

Tutin — tutinmoq.

**TRAKTIR — TRAKTOR**

Traktir — Chor Rossiyasi davridagi qahvaxona, restoran.

Traktor — yer haydaydigan qishloq xo'jalik mashinasi.

**TO'PON — TO'FON**

To'pon — qipiq, chor.

To'fon — bo'ron, dovul.

**U****UZOQ — UZOG'**

Uzoq — masofasi uzun, yiroq.

Uzog' — dial. Uzog' yili — o'tgan yili.

**UZUK — UZIK**

Uzuk — ayollarning, qadimda erkaklarning ham taqadigan ziynati, bezagi.

Uzik — uzilgan, uzilib ketgan, yuluq.

**UY — O'Y**

Uy — odatda yashash uchun qurilgan maxsus joy.

O'y — fikr, hayol.

**ULISH — ULUSH**

Ulish — s. t. It bo'ri kabilarning uvlashi.

Ulush — hissa, o'ziga tegishli bo'lak, qism.

**UNDASH — UNDOSH**

Undash — undamoq.

Undosh — nutq apparatida havo oqimining to'siqqa uchrashi tufayli hosil bo'ladigan tovush.

**URISH — URUSH**

Urish — urmoq.

Urush — jang, kurash.

**UQUV — O'QUV**

Uquv — fahm-farosat bilan bilib olish, fahmlash.

O'quv — o'qimoq.

**V****VAQF — VOQIF**

Vaqf — vasiyat qilingan, inoyat qilingan, bag'ishlangan yer.

Voqif — xabardor, baxabar yoki boxabar.

**VAQE — VOQEA**

Vaqe — sodir (bo'lmoq).

Voqea — hodisa.

**X****XALAL — HALOL**

Xalal — zarar, nuqson, xalaqit.

Halol — sof, toza.

**XALOS — XOLOS**

Xalos — ozod, erkin. Xalos etilgan xalq.

Xolos — faqat, faqatgina.

**XALQ — HALQ**

Xalq — el, ulus.

Halq — halqum.

**XAM — HAM**

Xam — egilgan, bukilgan.

Har uchovlari bo'yinlarini xam qilib, Mahamat

Oqilning oldiga bordilar.

Ham — gap yoki gap bo'laklarini bog'laydigan, bog'lovchi hamda ko'makchi vazifasida keluvchi yordamchi

so'z.

**XAT — HAD**

Xat — yozilgan narsa, maktub kabilar.

Had — chegara, mayor.

**XAYOLI — HAYOLI**

Xayoli — o'yi, fikri

Hayoli — iffatli

**XIYOL — HAYOL**

Xiyol — sal, salgina, bir oz.

Hayol — o'y, fikr.

**XIRS — HIRS**

Xirs — ayiq.

Hirs — kuchli istak, intilish.

**XIYLA — HIYLA**

Xiyila — ancha, anchagina, ko'pgina.

Hiyila — nayrang, firib.

**XIL-XIL — HIL-HIL**

Xil-xil — xilma-xil, rang-barang.

Hil-hil — ortiqcha ravishda pishib yetilgan, keragidan ortiqcha pishgan. Hil-hil olmalar.

**XOL — HOL**

Xol — badanda tug'ma ravishda bo'ladigan qora bo'rtma, nuqta, chiqiq.

Hol: hol-ahvol — holat, vaziyat.

**XOMTALASH — XOMTAROSH**

Xomtalash — bo‘lib-bo‘lib talashib olish. Xomtalash qilmoq.

Xomtarosh — chala tarashlangan, yuza qirilgan.

Yog‘ochni xomtarosh qilmoq.

### **XOSIYAT — HOSIYAT**

Xosiyat — xususiyat.

Hosiyat — his etish.

### **XURMA — XURMO**

Xurma — odatda sut-qatiq solinadigan mo‘ndisimon sopol idish. Xurmada tayyorlangan qatiq.

Xurmo — janubiy mamlakatlarda doim yashil bo‘lib, tepasidan uzun-uzun barg chiqarib o‘sadigan daraxt va mevasi.

### **XUR — HUR**

Xur — taqliq so‘z: xur-xurlamoq.

Hur — ozod, ekin.

### **XUSH — HUSH**

Xush — yaxshi, ma‘qul.

Hush — ong, aql, idrok.

### **XO‘RLIK — HURLIQ**

Xo‘rlik — xo‘rlik, azoblanish.

Hurlik — erkinlik, ozodlik.

## **Y**

### **YAGANA — YAGONA**

Yagana — ekinni siyraklatish.

Yagona — yakka, tanho.

### **YAROQSIZ — YAROG‘SIZ**

Yaroqsiz — yaramaydigan, ishlatib bo‘lmaydigan,

Yaroqsiz asbob. Yaroqsiz xodim.

Yarog‘siz — qurol-aslahasi yo‘q, yarog‘i yo‘q.

### **YETTI — YETDI**

Yetti — son.

Yetdi — yetib bordi.

### **YETMAK — YETMOQ**

Yetmak — nisholda tayyorlash uchun foydalanadigan o‘simlik ildizi.

Yetmoq — biror parsaga yoki kimsaga erishmoq.

### **YETOV — YETTOV**

Yetov — yetaklab yuriladigan (ot haqida).

Yettov — yetti so‘zidap jamlovchi son.

### **YONDOSH — YONDASH**

Yondash — yaqinlash.

Yondosh — yaqinidagi, yonidagi.

### **YOD — YOT**

Yod — xotir, xotira, es. Yodda saqlamoq.

Yot — begona, o‘zga.

### **YOLQIN — YORQIN**

Yolqin — alanga shu‘lasi, alanga.

Yorqin — porloq, ravshan.

### **YONILG‘I — YOQILG‘I**

Yonilg‘i — gaz, kerosin, benzin kabi yonuvchi suyuqliklar majmui.

Yoqilg‘i — o‘tin, ko‘mir kabilar majmui.

### **YONOQ — YONG‘OQ**

Yonoq — yuzning (chehraning) ko‘tarilgan qismi, o‘rtasi.

Yong‘oq — mevasi qattiq qobiq ichiga o‘ralib, dumaloq shaklda pishadigan ko‘p yillik o‘simlik va uning hosili.

### **YORIQ — YORUG‘**

Yoriq — darz ketgan, yorilgan.

Yorug‘ — ravshan, nurli. Yorug‘ xona. Yorug‘ sinf.

### **YOQ — YOG‘**

Yoq — tomon, taraf.

Yog‘ — moy, jir.

### **YUVINDI — YUVUNDI**

Yuvindi — suv bilan tozalandi.

Yuvundi — iflos suv.

### **YO‘YMOQ — YOYMOQ**

Yo‘ymoq — biror gap tush kabilarni ta‘birini aytib bermoq.

Yoymoq — tarqatmoq, yozib yubormoq.

### **YO‘QLAMOQ — YOQLAMOQ**

Yo‘qlamoq — biror munosabat bilan narsa yoki

kimsani so‘ramoq, sovg‘a qilib bormoq.

Yoqlamoq — himoya qilmoq, tarafini olmoq.

## **Z**

### **ZAMIN — ZOMIN**

Zamin — tag, asosi, tayanch.

Zomin: zomin bo‘lmoq — aybdor, sababchi.

### **ZAFAR — ZA‘FAR**

Zafar — g‘alaba.

Za‘far — sap sariq rang.

### **ZIYRAK — ZIRAK**

Ziyrak — diqqat e‘tiborli, hushyor, tiyrak.

Zirak — ayollarning quloqqa taqadigan bezagi, sirg‘a, baldoq.

## **O‘**

### **O‘TKAZMOQ — O‘TQAZMOQ**

O‘tkazmoq — o‘tish uchun imkoniyat yaratib bermoq, yo‘l bermoq. Bolani ariqdan o‘tkazmoq.

O‘tqazmoq — o‘tqazmoq. Bolani stulga o‘tqazmoq.

## **SH**

### **SHA‘N — SHON**

Sha‘n — sharaf, sharaf-shon; izzat-nafs.

Shon — shuhrat, dovruq‘. Shonu-shuhratga to‘liq Vatanim.

### **SHARAF — SHAROB**

Sharaf — shon, oliy hurmat. Rejani sharaf bilan bajaramiz.

Sharob — kt. vino; spirtli ichimlik. Sharob ichmoq.

### **SHAHID — SHOHID**

Shahid — haqqoniy, to‘g‘ri ish uchun qurbon bo‘lgan.

Shahid bo‘lmoq.

Shohid — guvohlik beruvchi shaxs, guvoh.

### **SHER — SHE‘R**

Sher — mushuklar oilasiga mansub, yirik vahshiy hayvon.

She‘r — qofiyadosh qilib yoki ritm qoidalariga asoslanib turib yozilgan kichik poetik asar, nazm.

### **SHIVIT — SHUVUT**

Shivit — mahalliy o‘simliklardan birining nomi.

Shuvut — uyat, yuzi qoralik, sharmandalik.

### **SHIPR — SHIFER**

Shipr — atirning bir turi.

Shifer — tom yopish uchun ishlatiladigan slanes yoki asbest bilap sementdan tayyorlanadigan binokorlik materiali.

### **SHOX — SHOH**

Shox — butoq, shox-shabba.

Shoh — podshoh, hokim.

**SHUBA — SHO‘BA**

Shuba — mo‘ynali qishki kiyim.

Sho‘ba — bo‘lim, idora.

**SHTAB — SHITOB**

Shtab — umumiy rahbarlik organi. Revolyutsiya shtabi.

Shitob — shoshilinch, tezlik. Shitob bilan hamla qilmoq.

**SHTORM — SHTURM**

Shtorm — dovul, po‘rtana.

Shturm — astoydil harakat, qat‘iy hujum.

**CH**

**CHAKKA — CHAKKI**

Chakka — yomg‘ir yoki qorning erishi tufayli hosil bo‘ladigan tomchi.

Chakki — bekor, bekorga, foydasiz.

**CHALG‘I — CHOLG‘U**

Chalg‘i — tik turib o‘radigan, tig‘i bir tomondan chiqarilgan uzun tutqichli katta o‘roq.

Cholg‘u — chalinadigan muzika asboblarning umumiy nomi.

**CHIRIK — CHURUK**

Chirik — chirigan narsa, chirindi.

Churuk — eskirib ketgan, eski-tuski (mato haqida).

**CHUCHIMOQ — CHO‘CHIMOQ**

Chuchimoq — chuchuk bo‘lmoq, chuchuklanmoq.

Cho‘chimoq — qo‘rqmoq, hayiqmoq.

## IBORALAR LUG‘ATI

### A

**Ammamning buzog‘i** - landovur, lapashang

**Aravani tortmoq** – 1. Jo‘nab qolmoq. 2. Boshqaning ishiga aralashguncha, o‘zi qodir ishni qilavermoq

**Aravani quruq olib qochmoq** - uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtanmoq

**Arpasini xom o‘rmoq** - *kim kimning* nima yomonlik qildi?!

**Almisoqdan qolgan** - eski

### B

**Baland oxurdan yem yemoq** – o‘ta takabbur bo‘lmoq

**Barmog‘ini tishlab qoldi** – hech narsa qilolmay, natijaga erisholmay qolmoq, afsuslanmoq

**Bag‘ri keng** – quchog‘i, maydoni, dargohi keng

**Belni bog‘lamoq** – shaylanmoq, otlanmoq, ahd qilmoq

**Bel bog‘lashmoq** – musobaqalashmoq

**Bir yoqadan bosh chiqarmoq** – birgalikda harakat qilmoq

**Boshi osmonga yetdi** – behad sevindi

**Bosh ko‘tarmoq** – 1. Sog‘aymoq. 2. Qaramoq. 3. Qo‘zg‘olon qilmoq

**Boshiga ko‘tarmoq** – 1. Juda e‘zozlamoq. 2. Shovqin qilmoq

**Boshida yong‘oq chaqmoq** – 1. Ortiq darajada g‘azablanmoq. 2. Qiynamoq

**Bosh qotirmoq** – astoydil o‘ylamoq, chuqur fikrlamoq

**Boshi yostiqa tegganda** – kasal bo‘lib yotib qolganda

**Boshini yeb** – juda ko‘p meva qilib

**Bosh egmoq** – itoatkor bo‘lmoq

**Bosh tortmoq** – amalga oshirishga rozi bo‘lmaslik

**Burni ko‘tarilgan** – gerdaygan, kibrlangan

**Burnini suqmoq** – aralashmoq, kirmoq

### D

**Dam bermoq** – 1. havo oqimini kuch bilan haydab kiritmoq. 2. Hordiq chiqarmoq

**Dong qotmoq** – 1. Kutilmagan hodisaga duch kelib karaxt bo‘lmoq. 2. Hech narsani sezmas darajada qattiq uxlamoq

**Do‘ppisini osmonga otmoq** – juda xursand bo‘lmoq

**Do‘ppisi yarimta** – shod, xurram; beg‘am, beparvo

**Do‘ppi tor keldi** – iloj-imkonsiz og‘ir ahvolga tushmoq

**Dili siyoh (bo‘lmoq)** – qattiq xafa (bo‘lmoq)

**Dunyoni suv bossa to‘pig‘iga chiqmaydi** – beg‘am, beparvo

**Dimog‘i shishmoq** – gerdaymoq

**Damini kesmoq** – 1. Gapirmaslik. 2. Ta‘sir kuchini yo‘qotmoq

### G

**Gapni bir joyga qo‘ymoq** – o‘zaro bir fikrga kelmoq

**Gap otmoq** – gapirmoq

**Gapida turmoq** – 1. Lafzida turmoq. 2. So‘zida qattiq turib olmoq

**Gap tegmoq** – 1. Navbat yetmoq. 2. Tanbex eshitmoq

## H

**Hafsalasi pir bo'lmoq** – biror ishni qilishga bo'lgan istak-intilish yo'qola yozmoq

**Haddan tashqari (sinonimi: haddan ziyod)** - o'ta darajada, nihoyatda

**“ha-hu” deguncha** – bir zumda, tez

## I

**Ikki oyog'ini tirab turmoq** – o'z fikrining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qilmoq

**Ilonning yog'ini yalagan** – mug'ombir, quv, juda ayyor

**Ipidan ignasigacha (sinonimlari : qilidan quyrug'igacha; miridan sirigacha; ignasidan ipigacha)** – butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha

**Ishtahasi karnay** – yeb-ichish istagi kuchli

**Ichi qora** – yomon niyatli

**Ichini mushuk talagan** – yashirin holda ruhan bezovtalangan, tashvishlangan

**Izdan chiqarmoq** – normal holatini buzmoq

## J

**Joniga oro kirmoq** – oyoqqa turgizmoq

**Joni chiqdi** – 1. Qattiq qo'rqmoq. 2. Vafot etmoq

## K

**Katta gapirmoq (sinonimi : katta ketmoq)** – imkoniyatidan ortiqcha baho bermoq

**Kapalagi uchmoq** – 1. Achchiqlanmoq, g'azablanmoq. 2. Juda qo'rqib ketmoq

**Kovushini to'g'irlab qo'ymoq** – haydab yubormoq

**Ko'kka ko'tarmoq** – maqtamoq

**Ko'nglida kiri yo'q** – kek saqlamaydigan, g'arazi yo'q, dali-g'uli

**Ko'nglini yozdi** – xafachiligini tarqatmoq

**Ko'ngli og'rimga** – rangimga

**Ko'ngli tog'day ko'tarimga** – ruhlanimga

**Ko'nglini olimga** – xursand qilimga

**Ko'nglini bo'shatimga** – har xil o'y-xayollarga borib o'zini o'zi xafa qilmaslik

**Ko'ngli joyiga tushimga** – tinchimga

**Ko'ngli bo'sh** – ko'ngilchan, rahmdil

**Ko'ngli to'q** – tinch, bezovda emas

**Ko'ngilni ochimga** – 1. Yayramoq. 2. Ichidagini aytimga

**Ko'zi ochimga** – yaxshi-yomonni tushunadigan bo'limga

**Ko'zi ochiq** – 1. Barhayot – tirik. 2. Yaxshini yomondan, foydani zarardan farqlashga qobilyatli

**Ko'zi uchib turgani yo'q** – ko'rish ishtiyoqidani?! (kesatig bilan)

**Ko'zini bo'yimga** – aldamoq, laqqillatimga

**Ko'ziga cho'p solimga** – aldamoq, laqqillatimga

**Ko'zi to'rt bo'limga** – intizor bo'limga

**Ko'z ochib yumguncha (sinonimi : “ha-hu” deguncha)** – bir tumda, tez

**Ko'zi qinidan chiqayozdi** – g'azabi ko'zida aks etmoq, ko'zi chaqchaymoq

**Ko'z yummoq** – 1. Vafot etmoq. 2. Voz kechmoq, e'tiborsiz qoldirmoq

**Ko'z tashlamoq** – qisqa muddat qaramoq

**Ko'z ochirmay qo'ydi** – biror narsani betiga solib yoki qattiq talab qilib, tinchlik bermaslik, qattiq siquvga olmoq

**Kuni o'timga** – tirikchilik qilimga

## L

**Laqqa tushimga** – osongina aldanimga

**Labi labiga tegmay** – juda tez va ko'p gapirmoq

**Labiga uchuq toshdi** – qattiq qo'rqish bilan cho'chimga

## M

**Misi chiqdi** – asl mohiyati, asl qiyofasi fosh bo'ldi

**Mum tishlab qoldi** – mutlaqo gapirmaslik

**Me'dasiga tegmoq** – yoqmay qolmoq, organizmi qabul qilmay qo'yimga

**Mushugini “pisht” demaslik** – hech narsasiga hech qanday ozor yetkazmaslik

## O

**Olam guliston** – hamma narsa ko'ngildagidek, hech qanday e'tirozga o'rin yo'q

**Oq ko'ngil** – yaxshi niyatli

**Oyog'ini qo'liga olib ketmoq** – shoshilmoq  
**Oyoq olmoq** - harakatlanmoq  
**Oyoq tiramoq** – o'z fikrining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qilmoq  
**Oyoq osti bo'ldi** – xo'rlandi  
**Oralaridan (qora) mushuk o'tmoq** – urishib qolmoq  
**Og'zi qulog'ida** – xursand  
**Og'zi qulog'iga yetgan** – behad sevinmoq  
**Og'zi ochilib qolmoq** – angraymoq  
**Og'ziga tolqon solmoq** – mutlaqo gapirmaslik  
**Og'zining tanobi qochadigan** – behad sevinmoq  
**Ota go'ri – qazixonami?!** – janjallashib, xafalashib o'tirishga arzimaydigan

#### P

**Pashshadan fil yasamoq** – bo'rttirib yubormoq  
**Pixini yorgan** – o'takelgan uddaburon, quv  
**Podadan oldin chang chiqarmoq** – aniq bo'lmagan narsa haqida vaqtdan oldin gapirmoq  
**Parvoyi palak** – hech bir narsaga e'tibor qilmaydigan  
**Po'stagini qoqmoq** – ayovsiz tanqid qilmoq  
**Puch yong'oq bilan qo'ynini to'ldirmoq** – amalga oshmaydigan quruq va'dalar bilan aldamoq

#### Q

**Qattiq qo'l** – xato qilingan ish uchun jazolaydigan  
**Qildan qiyiq topmoq** – yomon niyat bilan arzimagan narsa kamchiliklarni pisanda qilmoq  
**Qo'li egri** – o'zgalarning haqini, mulkini o'g'irlyadigan  
**Qo'lini yuvib qo'ltig'iga urdi** – ishonmay qo'yib, ixlosi qaytib, diqqat-e'tiboridan soqit qilmoq  
**Qo'li kaltalik qilmoq** – cheklangan imkoniyatga ega bo'lmoq  
**Qo'y og'zidan chop olmagan** – sodda  
**Qo'yi mingga yetdi** – behad sevindi  
**Qovog'i osilmoq** – xafa bo'lmoq  
**Qulog'i ding bo'lmoq** – hushyor bo'lmoq  
**Quloq solmoq** – tinglamoq  
**Qulog'i tom bitmoq** – eshitmaydigan  
**Qush kabi yengil bo'lmoq** – ruhiy azoblanishi tarqamoq

#### S

**Sirkasi suv ko'tarmaydigan** – tanqidga mutlaqo chidamaydigan  
**Suvga tushgan bo'lka nondek** – bo'shshib  
**Suvtekin** – juda arzon

#### T

**Ta'bi tirriq bo'lmoq** – kayfiyati, ahvoli juda yomon bo'lmoq  
**Taqdirga tan bermoq** – e'tirof qilishga majbur bo'lmoq, rozi bo'lmoq  
**Tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq** – umidi puchga chiqib, bo'shshmoq  
**Tegirmonga tushsa butun chiqadigan** – har qanday qiyin sharoitda ham qutulish yo'lini topadigan  
**Tekkanga tegib tegmaganga kesak otadigan** - tegajoq  
**Tepa sochi tikka bo'lmoq** – bir lahzaning o'zida nihoyatda qattiq g'azablanmoq  
**Terisiga sig'may ketdi** – behad sevindi  
**Tishining kovagida saqlamoq** – o'ta ehtiyot bilan va yashirin  
**Tirnoq ostidan kir qidirmoq** – aybsiz kishidan ayb qidirmoq  
**Tishini tishiga qo'ymoq** – his-tuyg'usini iroda kuchli bilan yengmoq  
**Tomdan tarasha tushganday** – qo'qqisdan, kutilmagan holda  
**Toqati toq bo'lmoq** – sabr kosasi to'lmoq  
**Tuyog'ini shiqillatmoq** – jo'nab qolmoq  
**Tumshug'ini tiqmoq** – aralashmoq  
**Tutgan yeridan kesadigan** – o'jar  
**To'nini teskari kiyib olmoq** – arazlamoq  
**To'n bichmoq** – xulosa qilmoq, ish qilmoq  
**Tulki qiziga to'y berdi** – laylak qor yog'ib, yerda esa qordan nishon ham bo'lmaganida ishlatiladi

#### X

**Xamirdan qil sug'urmoq** – osonlik bilan, hech qanday qiyinchiliksiz

## Y

**Yaxshi ko'rmoq** – 1. Sevmok. 2. Hurmat qilmoq. 3. Yoqtirmok

**Yer bilan yakson qilmoq** – butunlay yemirilmoq, yo'q bo'lmoq

**Yer tagida ilon qimirlasa biladigan** – nihoyatda ziyrak, sezgir

**Yerga ursa ko'kka chapchiydi** – o'taketgan sho'x

**Yerga urmoq** – ortiq darajada kamsitmoq

**Yeng shimarib** – astoydil

**Yog' tushsa yalagudek** – toza

**Yuragi toza** – yaxshi niyatli

**Yuragiga g'ulg'ula solmoq** – bezovta qilib qo'ymoq

**Yulduzni benarvon uradigan** – abjir

**Yuragiga qil sig'maydi** – juda qattiq tajang bo'lib, ruhan ezilib, hech narsa bilan mashg'ul bo'lmaslik

**Yurak-bag'ri xun** – biror narsadan qattiq ta'sirlanib iztirob chekmoq

## O'

**O'takasi yorilmoq** – qattiq cho'chimoq

**O'z yog'iga o'zi qovurilmoq** – ruhan azoblanmoq, ezilmoq

**O'pkasini cho'pga ilgan** – hovliqma

## Ch

**Chuchvarani xom sanamoq** – xomxayol qilib yurmoq, xomtama bo'lmoq

## TASVIRIY IFODALAR LUG'ATI

### A

**Aql gimnastikasi** - shaxmat, matematika

**Asr vabosi** - OITS, nashavandlik

### B

**Bahor elchisi** – boychechak, qaldirg'och

**Baraka urugi** - chigit

**Bilim maskani** - maktab, litsey, oliygothlar

### D

**Dala malikasi** - makkajo'xori

**Dehqonning qanoti** - traktor

### F

**Fazo lochini** - uchuvchi

### H

**Hayotimiz qomusi** - konstitutsiya

### K

**Kumush choyshab** - qor

**Kumush tola** - pilla

**Ko'zimning nuri** - farzand

### M

**Mo'yqalam sohiblari** - rassomlar

### O

**Oltin boshog** - bug'doy

**Oq oltin** – paxta

### P

**Po'lat ot** - traktor

**Pomir** - dunyo tomi

### Q

**Qalam ahli** - shoirlar

**Qanotli do'stlarimiz** - qushlar

**Qalbim quyoshi** - ona, vatan

**Qora oltin** - neft, ko'mir

### S

**Samo lochini** - fazogirlar, samolyot

**Salomatlik posbonlari** - shifokorlar

### Y

**Yaylov bahodirlari** - cho'ponlar

**Yashil vodiy** - Farg'ona

### Z

**Zangori ekran** - televizor

**Zangori olov** - gaz

**Zangori kema** - paxta terish mashinasi

### O

**O'rmon podshosi** - sher

**O'rmon malikasi** - archa

### G'

**G'azal mulkining sultoni** - Navoiy

### Sh

**Charm qo'lqop ustasi** - bokschi

## ARAB TILIDAN O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR

**A:** Adib, aholi, ahvol, asal, avlod, axloq, ayol, a’lo

**B:** Bino

**D:** Darak, davlat,

**F:** Fan, firqa

**H:** Harakat, havo, hikmat

**J:** Jiddiy, josus

**K:** Kamol, kamtar, karomat, kimyo, kitob, komil

**L:** Lug‘at

**M:** Mador, maktab, maktub, manzara, markaz, mas‘ul, ma‘no, maorif, muallim, muallif, muloyim, muomala, muvaqqat, muzofot, mo‘min

**O:** Odam, oila, ovqat

**Q:** Qadar, qalam, qoida

**R:** Rais, ruh, ruxsat

**S:** Sahna, san‘at, saodat, sehr, sohib, sur‘at

**T:** Talaba, tanqid, ta‘lim

**V:** Vaqt, vazifa, vazir, vaziyat, va‘da, vujud

**X:** Xalq, xalifa, xat, xato, xizmat, xorij

**Y:** Yaqin

**Z:** Zafar

**G‘:** G‘alla, g‘oyat

**SH:** Shamol, shayx, she‘r, shoir

## FORS TILIDAN O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR

**A:** Achchiq-chuchuk

**B:** Bahor, baho, barg, baxt, boshpana, bog‘(mevali daraxtlar ekilgan yer), bulbul, buqa(o‘zbekcha varianti: novvos), badjahl

**D:** Dam, dasta(o‘zbekcha varianti: sop), dazmol, dehqon, devor, dono, donishmand, durust, daraxt

**F:** Farzand

**G:** Gardum, gul, go‘sh

**H:** Ham(bog‘lovchi), hamma

**I:** Istara

**J:** Jang, juda, jilt(o‘zbekcha varianti: muqova)

**K:** Kam, kaptar, karaxt, kichik, kimxob, kissa(o‘zbekcha varianti: cho‘ntak), ko‘cha

**M:** Murg‘ak, musht

**N:** Nihol, nom, non

**O:** Olcha, obro‘, oftob(o‘zbekcha varianti: quyosh), orombaxsh, osmon(o‘zbekcha varianti: ko‘k), olov(o‘zbekcha varianti: o‘t)

**P:** Parada, parcha, past, paxsa, paydo, peshana

**Q:** Qahr-g‘azab, qonxo‘r, qo‘shnay, qog‘oz

**R:** Ro‘za

**S:** Sog‘-salomat, sust

**T:** Taxt, tilla, tez-tez, to‘y-tomosh

**X:** Xalta, xaridor, xo‘roz

**Y:** Yalangbosh

**G‘:** G‘isht

**SH:** Shaker, shirin, shirinso‘z

**CH:** Chiroq, chopon(o‘zbekcha varianti: to‘n), chorva, chorpoya(o‘zbekcha varianti: so‘ri)